XALQ DEPUTATLARI MARHAMAT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 25-yanvar VII-4-12-1-24-K/25 Marhamat tumani

Marhamat tumanning ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan Yo‘l xaritasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 12-apreldagi Andijon viloyati hokimligiga yuborilgan 03/08-3449-sonli xat orqali yuborilgan ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar hamda Marhamat tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 19-avgustdagi 1-sonli yig‘ilish bayoni inobatga olinsin.

3. Marhamat tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga asosan Marhamat tumani bilan chegaradosh bo‘lgan Qirg‘iziston Respublikasi va Marhamat, Asaka, Andijon, Xo‘jaobodtumanlari o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ushbu qaror xalq deputatlari Andijon viloyati Kengashida ko‘rib chiqilishi uchun yuborilsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining doimiy komissiyalari hamda tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



MAMUROV
O‘TKIRBEK
KOMILJONOVICH

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2025-yil 25-yanvardagi
VII-4-12-1-24-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Andijon viloyati Marhamat tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘i
T A V S I F I

Marhamat, Buloqboshi va Asaka tumanlarining chegara chiziqlari tutashgan joy, Shahrixonsoy soyi bo‘yida joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi.*(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°37'39,439", sharqiy uzoqlik koordinatalari 72°21'36,577").*

A dan B gacha Buloqboshi tumani yerlari bilan 1 – 3 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha.

1 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 123 metr masofada Shahrixonsoy soyini kesib o‘tib, umumiy sharqiy yo‘nalishda Aravansoy soyining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1331 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li ko‘prigida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'33,662", sharqiy uzunlik 72°22'31,922").*

2 - nuqtadan chegara chizigi avtomobil ko‘prigidan Aravansoy soyiga o‘tadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda soyining suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2952 metr masofni o‘tib, Tojikiston Respublikasi, Buloqboshiva Marhamat tumanlari chegara chiziqlari tutashgan joy, soy bo‘yida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°37'04,030", sharqiy uzunlik 72°24'23,699").*

B dan D gacha Qirg‘iziston Respublikasi yerlari bilan 3 – 4 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha.

3-nuqtadan 4-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi.boshlang‘ich 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'32,522", sharqiy uzunlik 72°10'24,445")*

D dan E gacha Farg‘ona viloyati yerlari bilan 4 – 5 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha.

4-nuqtadan chegara chizig‘i damba bo‘ylab burilishlarini hisobga olgan holda shimoliy yo‘nalishida 357 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘li bilan tutashadi, keyin dala tuproq yo‘lidan chegara quruq chizig‘i orqali shimoliy yo‘nalishida 265 metr, masofada ariqq o‘tib, keyin so‘ng ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 185 metr, shimoliy yo‘nalishda 180 metr masofada dala yo‘liga tutashadi, so‘ngra yo‘lining g‘arb tomonidan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 214 metr masofadan keyin, chegara quruq chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 53 metr masofani o‘tib, ariq bilan tutashadi, so‘ngra shimoliy

yo‘nalishda ariqning suv oqimi qarshi o‘ng tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 126 metr, so‘ng g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 132 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lining janub tomonidan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 219 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, ariq bilan tutashadi, keyin ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 652 metr masofadan quruq soyga o‘tadi va umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda quruq soyning chap tomonidan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 2526 metr masofani o‘tib, so‘ngra chegara quruq chegara chizig‘i orqali umuimiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 74 metr masofani o‘tib, beton ariq bilan tutashadi, so‘ng beton ariqning suv oqim bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 42 metr masofanidan keyin chegara quruq chizig‘i orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 114 metr masofada beton ariqqa o‘tadi va beton ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 142 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 381 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1487 metr va shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 265 metr masofada ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomonidan umumiy shimoliy yo‘nalishida barcha burilitshlarini hisobga olgan holda 115 metr, keyin g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishida 97 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 338 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 192 metr masofada dala tuproq yo‘liga o‘tadi, keyin dala tuproq yo‘lining g‘arb tomonidan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 298 metr masofada o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°32'47,407", sharqiy uzunlik 72°12'46,200"*)

E dan A gacha Asaka tumani yerlari bilan 5 – 1 - nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha.

5 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 42 metr masofani o‘tadi, keyin dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, quruq ariqqa tutashadi va quruq ariq bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 980 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘lida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'07,712", sharqiy uzunlik 72°13'14,059").*

6 - nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1053 metr masofani o‘tib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'41,475", sharqiy uzunlik 72°13'13,644")*

7 - nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1007 metr masofani otib, avtomobil yo‘li bo‘yida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'56,741", sharqiy uzunlik 72°12'36,976")*

8 - nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lini kesib o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 372 metr masofani o‘tib, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 135 metr masofani o‘tib, so‘ng yo‘nalishi o‘zgarmagan holda ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan 64 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘li bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'06,975", sharqiy uzunlik 72°12'24,697*”)

9 - nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 230 metr masofada kanalni kesib o‘tib, kanal bo‘yida bo‘yida joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'11,971",-sharqiy-uzunlik 72°12'32,297*”)

10 - nuqtadan chegara chizig‘i kanalning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 92 metr masofani o‘tib, keyin dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi, va ariqning suv oqimi bo‘ylab umumiy shimoliy yo‘nalishda 83 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'16,656", sharqiy uzunlik 72°12'30,101").*

11 - nuqtadan chegara chizig‘i ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 465 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'23,258", sharqiy uzunlik 72°12'25,780").*

12 - nuqtadan chegara ariqning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 115 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 153 metr masofada beton ariqni kesib o‘tib, beton ariq bo‘yida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'29,754", sharqiy uzunlik 72°12'31,415").*

13 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 45 metr masofani o‘tib, tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 101 metr masofani o‘tib, keyin quruq chiziq orqali janubiy-sharqiy yo‘nalishda 23 metr masofada ekin yer chegarasiga o‘tadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 70 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 63 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chiziq orqali janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 72 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 242 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 52 metr masofani o‘tib, ariq burilishida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'31,487", sharqiy uzunlik 72°12'45,991").*

14 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq ariq bo‘ylab umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 208 metr, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 63 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 160 metr masofani o‘tib, ekin ter chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 124 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 82 metr masofani o‘tib, keyin janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 58 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'22,229", sharqiy uzunlik 72°12'47,018*”)

15 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 368 metr masofani o‘tib, suv quvuriga tutashadi va quvur bo‘ylab janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 157 metr masofani o tib, ariqqa tutashadi va yo‘nalishi o‘zgarmagan holda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 37 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'15,285", sharqiy uzunlik 72°12'58,489*”)

16 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 677 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'16,430", sharqiy uzunlik 72°13'12,071").*

17 - nuqtadan chegara chizig‘i umumiy janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burilishlarini hisobga olgan holda 215 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 276 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'36,869", sharqiy uzunlik 72°13'56,867").*

18- nuqtadan chegara chizig‘i kanaldan qabriston devoriga o‘tadi, va devor bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 127 metr masofani o‘tib, ariqqa tutashadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 996 metr masofani o‘tib, ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab yo‘nalishi o‘zgarmagan holda 210 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-sharqiy yo‘nalishda 200 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chiziq orali janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 33 metr, g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 70 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘lida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'42,034", sharqiy uzunlik 72°14'27,117").*

19- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 129 metr, keyin yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 645 metr masofani o‘tib, so‘ngra yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 148 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'58,910", sharqiy uzunlik 72°14'44,168").*

20- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan ekin yer chegarasiga o‘tadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 149 metr masofani o‘tib, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 249 metr masofani o‘tib, so‘ng to‘g‘ri chiziq orqali sharqiy yo‘nalishda 8 metr masofada ariqni kesib o‘tib, shimoliy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 199 metr so‘ngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 229 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'58,910", sharqiy uzunlik 72°14'44,168").*

21- nuqtadan chegara chizig‘i ariqni kesib o‘tib, quruq ariq bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 144 metr masofani o‘tib, ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 160 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chiziq orqali shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 134 metr masofani o‘tib, quruq ariqqa tutashadi va quruq ariq bo‘ylab yo‘nalishi o‘zgarmagan holda 255 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'12,506", sharqiy uzunlik 72°14'59,221").*

22- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 256 metr masofani o‘tib, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan umumiy janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 901 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34'56,641", sharqiy uzunlik 72°15'35,808").*

23- nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan ekin yer chegarasiga o‘tadi va ekin yer yer chegarasi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 825 metr

masofani o‘tib, yo‘l bo yida joylashgan 24 - nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'19,822", sharqiy uzunlik 72°15'44,316")*.

24 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan ekin yer chegarasiga o‘tadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 594 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy yo‘nalishda 136 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 655 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'56,670", sharqiy uzunlik 72°16'09,774")*.

25- nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 56 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib ariqqa tutashadi va ariqning suv oqimi bo‘ylab chap tomoni bilan yo‘nalishni o‘zgartirmagan holda 240 metr, keyin umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 890 metr masofada qishloq ichki yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'19,437", sharqiy uzunlik 72°16'28,512")*.

26- nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yolining g‘arb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 337 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'27,750", sharqiy uzunlik 72°16'35,645")*.

27- nuqtadan chegara chizig‘i qishloq ichki yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 295 metr masofani o‘tib, keyin ariqqa tutashadi va shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 285 metr masofani o‘tib, so‘ng tomorqa chegarasi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 194 metrni o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va dala tuproq yo‘lining g‘arb tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishida 194 metrda dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, ariqqa tutashadi, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 140 metr masofada Shahrixonsoy soyini kesib o‘tib, soy bo‘yida joylashgan , 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'55,773", sharqiy uzunlik 72°17'00,047")*.

28- nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Shahrixonsoy kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 982 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'43,745", sharqiy uzunlik 72°17'36,719)*.

29- nuqtadan chegara chizig‘i sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda Shahrixonsoy soyining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 94 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarini hisobga olgan holda 333 metr masofada avtomobil yo‘li ko‘prigini kesib o‘tib, ko‘prik bo‘yida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36'49,071", sharqiy uzunlik 72°17'52,082")*.

30- nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘li ko‘prigidan Shahrixonsoy soyiga o‘tadi va sharqiy yo‘nalishda soyining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1330 metr masofani o‘tib, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1432 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37'11,208", sharqiy uzunlik 72°19'43,434")*.

31- nuqtadan chegara chizig‘i umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda Shahrixonsoy soyining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 2913 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik koordinatalari*


40°37'39,439", sharqiy uzoqlik koordinatalari 72°21'36,577")

Xalq deputatlari Marhamat tumani
Kengashining
2025-yil 25-yanvardagi
VII-4-12-1-24-K/25 -son qaroriga
2-ilova

Andijon viloyati Marhamat tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi

Andijon viloyati Marhamat tumanining
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

CHIZMASI



Shartli belgilar

1 Marhamat tumani chegarasining burilish nuqtalari va raqami

Marhamat tumanining chegarasi